

# TONG YULDUSI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

Nº 46 (66327)  
2001 yil 16 noyabr, juma

Sotuvda erkin narxda

Ta'til kunlari sayohatga chiqishga ne yetsin?! Olgan taassurotlarimiz bir umr yodda qoladi. Men tahsil olayotgan Alisher Navoiy nomidagi Respublika nafis san'at litseyi o'quvchilari buni juda yaxshi bilishadi. Shundanmi, sayohatga chiqish litseyimizda yaxshi bir an'anaga aylangan.

Kuzgi ta'tilda ham odatimizga ko'ra Buxoroi-sharif, Samarqand deya atalmish ko'hna va qadimiy shaharlarga sayohatga otlandik.

Buxorodagi Ashtarkoniylar madrasasi, Ark darvozasi, Mir Arab maqbarasi, Ko'kaldosh, Maloxon madrasalarini ziyorat qildik. Samarqandda qad rostlagan Sherdor, Mirzo Ulug'bek, Tillakor madrasalari, Go'ri Amir, Registon maydoni,



## KONSTITUTSIYA - QOMUSIMIZ ASOSI

Diyorimiz o'z mustaqilligini qo'lga kirtgandan so'ng bir qancha mamlakatlar qatori 1992 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ldi. Ana shu tashkilotning bir bo'lagi hisoblangan UNICEF - butun dunyo bolalarini himoya qilish tashkilotining tuzilganiga 10 yil to'lishi munosabati bilan "Konstitutsiya - qomusimiz asosi" deb nomlangan maktablararo ko'rik -tanlov o'tkazildi.

Tanlovda shahrimizdagi barcha maktab va litseylar qatnashdilar. Bizning I.Usmonov nomli 200 - litsey maktabimiz ham tanlov ishtirokchilaridan biri bo'ldi.

Tanlovda qatnashish istagini bo'lgan maktablar ijodkor o'quvchilarning ijod namunalardan tavsiya etishdi. Tanlov shartiga ko'ra 24 sahifadan iborat kitob yozishimiz, unga qisqa, mazmundor nom qo'yib, birlik shartlari asosida bezatishimiz kerak edi.

Muhimi, bu ishlarni bari o'quvchilar tomonidan bajarilishi lozim edi.

Biz litseyimizdagi barcha ijodkor va mo'yqalam sohiblari birlashgan holda aytilan shartlar asosida "REZANANS" deb nomlangan kitobni nashrdan chiqardik.

Kitobning nomi fizikaga oid terminlardan olingan bo'lib, mayda narsalar majmuu degan ma'noni anglatadi. Kitobimizga ustozlarimiz bilan konstitutsiyaga oid qilgan savol-javoblarimizni kiritdik. Tengdoshlarimizning she'rlari, masallari, maqollar, tez aytish va topishmoqlaridan jamlab, ularga mos suratlar ham kiritdik.

Shuningdek, maktabdoshlarimizning ularga berilgan va berilishi lozim bo'lgan erkinliklar haqidagi fikr- mulohazalarini ham kiritdik. Ustozimiz, direktor o'rinosari Rahima opa Javohirova bu ishlarni amalga oshirishimizda foydali maslahatlari bilan yaqindan ko'maklashdilar.

Nazokat UMAROVA,  
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi  
200 - litsey maktabining 9 - sinf o'quvchisi.

## BIR KELIB KETING QISHLOGIMIZGA

Bizning Chaqar nomli qishlog'imiz Samarqand viloyatida joylashgan. Qishlog'imizda madaniyat saroyi, qishki va yozgi kinoteatrlar mavjud bo'lib, qishloq ahli bu maskanlarda madaniy hordiq chiqarishardi. Lekin keyingi paytlarda qandaydir sabablarga ko'ra biz miriqib kinofilm tomosha qiladigan kinoteatrimiz yopilib qoldi. Keyin esa ko'z ko'rib, quloq eshitmagan talon-tarojlar boshlandi. Dastlab shiftlaridan ayrligan binoning keyinchalik tomidagi taxtalarini ham tashib ketishdi. Madaniyat saroyimizda esa yanada g'aroyib bir manzaraning guvohi bo'lasiz. Kutubxonaga onda-sonda kelib turadigan yangi kitoblarni hisobga olmaganda, qolgan kitoblarning barchasi sobiq Ittifoq davrida

nashrdan chiqqan kitoblar. Madaniyat saroyimiz shuningdek, yana bir xona borki, uni qanday atashga ham hayronman. Ilgari bu yerda turli to'garaklar bo'lib, ular bayram tabdirlariga o'z chiqishlari bilan fayz kiritardilar. Hozir esa bu yerda birligina xodim ishlendi. Yozgi kinoteatr deb sanalgan imoratni hovliga aylantirib olishganini ko'rsangiz, bexosdan yoqangizni ushlaysiz. Men hikoya qilayotgan qishlog'imiz muammolari ko'pchilik tengdoshlarimga ham juda tanishdek tuyulayotgandir. Chunki kimlardir «umumiy gaplar» deb hisoblaydigan bu muammolarni ham kimdir ko'tarib chiqishi kerak-ku, axir?..

Behzod BOZOROV,  
O'zMU jurnalistik fakulteti  
1 - bosqich talabasi.

Biz 12-yildirki Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi «Naslchilik markazi» ko'chasiagi ko'p qavatli uyldan birida yashaymiz. Menimcha, hamma ham uyida barcha shart-sharoitlar bo'lishini istasa kerak. Agar biz tomonlarga kelib qolsangiz, hayratdan yoha ushflashingiz aniq. Ko'pchilik o'z mahallasi bilan faxlanib gapirsak, biz indamay turamiz.

Chunki mahallamizning maqtagulik yeri ham yo'qda. Ko'chalarimiz kech tushganda zim-ziyob bo'lib ketadi, fonar ushlab yurishga ham to'g'ri keladi.

«O'z uyingni o'zing asra» degan da'vatni oynayijahon orqali har kuni bir necha bor eshitamiz. Ammo qorong'ulikda nimani ham kuzatish mumkin? Uylarimiz yo'laklarining buontasida ham chiroq yo'q. Kim kelib, kim ketayotganini umuman bilib bo'lmaydi. Bir o'zingiz yursangiz, qo'rquvdan yuragingiz taras yorilay deydi.

Endi tashqaridan uyga kiraylik. Xonodonlardagi kamchilliklarning qay birini aytay? Issiq suv yo'q deb nolirdik. Endi sovuq suv ham tansiq bo'lib qoldi. Mayli deb, bunga ham chidadik. Kun sovuq bo'lishiga qaramay, hali issiqlik berilmadi. Shu kunnarda

uyimizdan ko'cha issiqroq. Bu ham yetmaganday, yomg'ir yomg'sa uyulari-miz

shiftidan chakki o'tadigan bo'lib qoldi. Ta'mirlashdi, lekin ahvol o'sha-o'sha. Yomg'ir yoqqanda uyimizning har bir burchagiga tog'ora va chelaklar qo'yib o'tiramiz.

Agar biz tomonlarga yomg'ir yoqqanda keladigan bo'lsangiz, uzunroq etik kiyib keling. Chunki yo'llarimizda hovuzchalar juda ham ko'p...

Bu muammolarimizni «Davr ovozi» gazetasiga yozdim. Ammo foydasi bo'tmadni, hech kim uni o'qib ham ko'rmadi. Shunda sevimli gazetamiz «Tong yulduzi» orqali tegishli tashkilotlarga murojaat qilishga ahd qildim. Shoyad, ohimizni eshitadigan odam topilsa-yu mushkulimiz oson bo'lsa. «Naslchilik markazi» mahallasi ahlining dildagini ogqa ko'chiruvchi Chingeldi maishiy xizmat kasb-hunar kollejining huquqshunos 011 guruhi talabasi

Saadat ISMATOVA Ilyos qizi.

## USTOZZLARIM MIEHNATI BOIS...

Bu yil Respublika "Nafosat" yosh qalamkashlar anjumani yetti yoshta to'ldi. Mana shu yettinchi yili o'tkazilgan uchrashuvda men ham ishtirok etganimdan juda xursand bo'ldim.

Avvalam bor biz yosh qalamkashlarni qo'llab-quvvatlagan ushbu anjuman tashkilotchilariga minnatdorchilik bildirmoqchiman. Bu kabi uchrashuvlardan olam-olam taassurotlar olishimiz aniq.

Men anjumanda el sevgan shoir, rahmatli Muhammad Yusufga bag'ishlangan she'rimni o'qidim. Nazarimda she'rim atrofdagilarni befarq qoldirmadi.

Anjuman davomida ko'plab do'star orttirdim. Yozgan mashqlarimiz bilan o'rtoqlashdik.

Anjuman so'ngida menga ham xalq ta'limi vazirligining "Maqtov yorlig'i" topshirildi. Uni qo'limga olar ekanman, xorazmlik do'stlarim, o'qituvchilarim, maktabimiz direktori va albatta ota-onam ko'z oldimga keldi. Chunki anjumanga ketishdan oldin o'zimga- o'zim "ishonchlarining oqlashga harakat qilaman", deb so'z bergandim.

"Maqtov yorlig'i" bilan direktorimiz Tamara opa Abdullayeva oldiga kirayotganimda meni shunday hayajon bosdiki, so'z bilan aytish qiyin. Anjumandan olnan taassurotlarimni barcha ustozlarimga, sinfdoshlarimga so'zlab berdim. Bu yutuqlarimda ustozlarim- Gulchehra opa Ishniyozova, Zamira opa Bobojonova, Muyassar opa Rahimova, Zamira opa Shari povalarning mashaqqatli mehnati borgilini dil-dildan his qildim.

Faroxat JABBOROVA,  
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi  
16-maktabning 8 - sinf o'quvchisi.

## KITOBLARIM SONI 50 DAN OSHDI

Men 7-sinfda o'qiyman. O'qishlarim yaxshi. Bo'sh vaqtlarimda badiiy kitoblar o'qishni yaxshi ko'rman. Shuning uchun ham tez-tez badiiy kitoblar sotib olaman.

Ayni kunlarda o'zimning kichik kutubxonam bor. Undagi kitoblarim soni ellikdan oshib ketdi. Kitoblarim orasidan «Sariq devni minib» asari, «Bo'ri nega terisidan ajradi?», kabi ertaklar to'plami, hatto turli millat ensiklopediyasi joy olgan. Ularning har birini diqqat bilan o'qishga harakat qilaman. O'rtoqlarimga ham kitob o'qishlarini maslahat berib turaman.

Kuzgi ta'til kunlarda Abzal va Ilhom ismli do'stlarim kutubxonamdag'i kitoblardan foydalandilar. Biz birgalikda o'qigan kitoblarimiz yuzasidan fikrashidik. Undagi ijobji va salbiy qahramonlarni tahlil qildik. Ikkinci chorakda ustozimiz bizlardan «ta'tilda nima ish qildingiz?» deb so'rasalar uyalib qolmaydigan bo'ldik.

*Abduazim SAMADOV,  
Toshkent shahar, Shayxontohur  
tumanidagi 324-maktabning  
7-«A» sinf o'quvchisi.*



## EL ARDOQLAGAN SHIFOKOR

Men mahalladoshimiz, fidoyi inson haqida so'zlagim keldi. Ularning ko'magida qanchadan-qancha inson umriga umr, taniga sog'lik ato etildi. Aytishadiku «Sog' tanda sog'lom aql» deb. Mahalladoshlar, hamshaharlar sog'ligi haqida qayg'uradigan shifokorimiz - Karimjon amaki Haqberdiyev 50 yoshlarni qoralagan, shirin so'zli, ochiq chehrali, mehribon inson. U kishi shahrimiddagi «Diagnostika» shifoxonasida bosh shifokor bo'lib ishlaydilar. Xastalik bilan murojaat qilganlarga kechani kecha, kunduzni kunduz demay o'z maslahatini beradilar, ilojini topolmasalar shifoxonaga olib borib, bemorni joylashtiradilar. Karimjon aka o'z kasbining mohir ustasi. U kishi jarroh bo'libgina qolmay, urologiya, terapiya, nervalogiya, hatto teri kasalliklarini ham yaxshi biladilar. Karimjon amaki jamoa ishida faol qatnashadilar. Mahallamizda bo'ladigan to'y, maraka u kishisiz o'tmaydi, borib chaqirib kelishadi. U kishi yoshlar bilan uchrashishni yoqtiradilar, yoshlarga ahloq-odob va tibbiyot sohasida foydali maslahatlar beradilar, ishsiz yurgan yoshlarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashadilar. Karimjon amakini 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan yoshu-qarilar tanishadi, hurmat qilishadi.

*Dilnoza HAMDAMOVA,  
Samarkand viloyati, Urgut shahridagi  
121-maktabning 6-«V» sinf o'quvchisi.*

**ZAMONAVIY REYTING TIZIMI**  
O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'liga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab jamiyatimizning barcha sohalari qatori maorif sohasida ham ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Akademik litseylar, kollejlар yaratildi. Ta'lim olish kompyuter tizimida o'tila boshlandi. Maktablarda esa zamonaviy reyting tizimi qo'llanilmoqda. O'quvchilar reyting tizimi asosida fanlarni qay darajada o'zlashtirganliklari o'qituvchilar tomonidan nazorat qilinib, munosib baholanmoqda. Zamonaviy reyting tizimi besh ballik baholash tizimidan mutlaq farq qiladi. Baholash jarayoni o'quvchilarga bilim olish darajalarini yuksaltirish bilan bir qatorda adolatlilikha imkoniyatini beradi. Shuningdek, o'quvchi reyting tizimi asosida adolatlilikha baholanganligiga iqrar bo'ladi. Yana yangi darslarni o'zlashtirib, o'z ballarini to'play boshlaydi.

Besh ballik baholash tizimida esa bir marotaba ikki baho olgan o'quvchida tushkunlikka tushish hodisasi vujudga kelar edi. Natijada o'quvchida fanni o'zlashtirib olishga qiziqishi kamayib borardi. Chunki sindoshlari orasida «ikkichi» degan nom olardi-da. Bu esa o'quvchini yanada bilim olishiga to'sqinlik qilardi.

Aziz o'quvchilar! Biz uchinchi ming yillikka shaxdam qadam tashladik. Shubhasizki, XXI asr misli ko'rilmagan tezkor gullab-yashnash asri bo'ladi. Buning uchun sizning hozirgi vazifangiz chuqur bilimga ega bo'lishdan tashqari, ma'naviy barkamol, yetuk va jismonan sog'lom inson bo'lib voyaga yetishdir. Ko'proq izlaning, o'rganing va intiling. Bu yo'lda sizlarga omad tilayman.

*Aliasqar ISMOILOV,  
Toshkent Kimyo-tehnologiya instituti 1-  
bosqich magistranti.*

## AYIQPOLVON CHIQMADI-DA...

Mana, hash-pash deguncha birinchi chorakni ham tugatib qo'yibmiz. Kuzgi ta'til kunlarini maroqli o'tkazishimiz uchun poytaxtimizdagi barcha istirohat bog'lar, yosh tomoshabinlar hamda qo'g'irchoq teatrлari, hayvonot bog'larida shart-sharoitlar muhayyo qilingan. Jumladan, Toshkent Davlat Sirkida ham 3-11 noyabr kunlari biz bolajonlar uchun kuniga 2-3 marotaba tomoshalar qo'yildi. Oyijonim ukam ikkimizni tomoshaga olib bordilar. Yangi ta'mirlangan Sirk binosida maroqli dam olishimiz uchun barcha sharoitlar yetarli ekan: Bufetlar, turli atraksionlar ishlab turibdi. Manej atrofida masxarabozlar yoki ayiqpolvonlar bilan esdalik uchun suratga tushsangiz, tomosha tuguguncha tayyor bo'lar ekan. Tomosha dasturining rang-barangligini aytmaysizmi?! Aziza Nasimova, Zuhra Mirsaidova, Svetlana va Aleksey Dobrov kabi gimnastikachilarining chiqishlarini hadik va hayajon bilan tomosha qildik.

Ikkinci bo'limda namoyish etilgan Xitoyda bo'lib o'tgan festivalda kumush sovrin sohibi bo'lgan Niso Aliyeva rahbarligidagi O'zbekiston dorbozlarining chiqishlarini ham barchada katta taassurot qoldirdi. Monte Karlo shahrida bo'lib o'tgan sirk ustalari birinchiligidagi bronza medal sohibi bo'lgan Shukur Aliyev rahbarligidagi "Sharq yigitlari" guruhining chavandozlarini ot o'ynatib sahnaga chiqishganda ukamning zavq bilan tomosha qilishini bir ko'rsangiz edi...

Tunov kuni televizor orqali sirkdagi tomoshalardan lavhalar namoyish etib, ayiqpolvonlarning qiziqarli chiqishlarini ko'rsatishgandi. Biz ayiqpolvon bilan suratga tushdigu o'zini manejda ko'rmadik. Yubka va qalpoqchalar kiyib olgan maymoqvoyning chiqishlarini ham namoyish etilganda, zo'r bo'lardi-da.

*Dilyora ERKINOVA,  
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 45-  
maktabning 5-sinf o'quvchisi.*

## SALOM QUDRATI

Qadim zamonda bir qishloqda ikkita inoq do'st bo'lgan ekan. Birining ismi Alisa, birining ismi Anvar ekan. Bir kuni ikkovlari o'ynab o'rnonga borishganini bilmay qolibdi. Eng dahshatli ularning oldidan dev chiqibdi. Ular qo'rqqanidan nima qilishini bilmay qolibdi. Shunday damda Alisaning oyisini so'zları yodiga tushibdi.

- Qizim agar yoningdan kim chiqsa avvalo salom ber shunda seni hamma yaxshi ko'rib qoladi, - degan ekan. u o'zini qo'rquvini bosib olibdi. Va hayajonlanmay devga baland ovozda «Assalomu alaykum» - debdi. Dev yuzi yorishib ketibdi. ularga

javoban.

«Vaalaykum assalom o'g'il-qizlarim! Qayerga ketayotgan edilaring bolalarim» - debdi. Ikkalasini ham yuzi yorishib ketibdi. Va javob beribdi: «Biz adashib qolgandik. Shuning uchun sizdan yordam so'raymiz. Qanday qilib o'rnongan chiqib ketsak bo'ladi. Aytolmaysizmi? deb so'rabi. Dev ularga javob beribdi. «Uyga yetib borishni istasalaring ketish uchun mana bu so'qmoqdan ketinglar bolalarim» deb ular bilan xayrashib ketibdi». Ular o'z uylariga yetib borishibdi. Mana shunday aziz do'star. Sizlar ham hammaga salom berishni unutmang.

*Zuhiddin ESHMURODOV,  
Samarkand viloyati, Oqtosh shahri, 59-maktabning  
5-sinf o'quvchisi.*

## OTABEKNING EKINLARI

Bizning uyimizning oldida uncha katta bo'Imagan tomorqa bor. Hozirgi hikoyam shu tomorqa bilan bog'liq. Bahor kelishi bilanoq men va ukam Otabek shu tomorqaga ko'chat o'tkazgandik.

«Bu ikkalamizning daraxtimiz» - dedi Otabek. Keyin biz boshqa daraxtlar orasida qolib ketgan kichkina o'rik ko'chatini boshqatdan ektdik. Kunlarning birida ukam butanining shoxini olib keldi.

Men undan «Sindirib oldingmi?» - deb so'radi. «Yo'q, yerda yotgan ekan olib keldim», - deb javob berdi Otabek.

Ukam daraxtlariga har kuni chelak-chelak suv quyar edi. Nihollar esa kundan-kunga unib, ko'kka bo'y cho'zardi.

Yozgi ta'til bo'lgani uchun, Otabek ekinlarini sug'orishni bir kun ham unutib qo'ymasdi.

Bir kuni biz Samarqandga - buvimni ko'rishga ketdik. Ikki hafta o'tar-o'tmas uyga qaytib keldik.

Mashinada kelar ekanmiz Otabek: «Uyga borib ekinlarimni sug'oraman» - deb qo'ydi.

Mana uyga ham yetib keldik. Qarasak tomorqamizga g'isht va qum to'kilgan ekan. Buni ko'rgan Otabek yig'lamoqdan beri bo'ldi.

Ertasi kuni ishchilarga: «Ekinlarimni payhon qilib qo'yasizlar» - dedi. Keyin esa daraxtlarni qumdan qazib chiqarishga tushdi. Ekinlar ozgina so'ligan bo'lsa-da, Otabek ularni o'sib ketishiga ishonardi va chelaklab suv quyishda davom etardi.

*Visola QARSHIBOYEVA,  
Mirobod tumani 175-maktab o'quvchisi.*

- Ma'lumki, shu yilning 15 iyunida Toshkent shahar bolalar tashkiloti tuzilgan edi. Yozgi ta'til davri bo'lganligi sababli maktablarga chiqolmagandik. Yangi o'quv yili boshlanishi bilanoq har bir ishimiz muktab o'quvchilar bilan bog'landi.

Birinchi galadagi vazifamiz maktablarda Bolalar tashkilotini tuzish edi. Shu kunga qadar ushbu tashkilotni Chilonzor tumanidan tashqari barcha maktablarda tashkil etdi. Yaqin kunlarda Chilonzor tuman maktablarida ham bolalar tashkiloti ish boshlash arafasida.

Bolalar tashkilotining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishdir. Tadbirlar, ko'rlik-tanlovlari uyushtirish shular umasidandir.

Shu yilning 24 noyabrigacha barcha maktablarga «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkiloti guvohnomasi topshiriladi.

Bolalar o'z xohishlariga qarab, tashkilot nomini tanlaydilar. Masalan, Sirg'ali tumanidagi 28 ta muktab o'quvchilarini bir yoqadan bosh chiqarib, «Kamalak» bolalar tashkiloti deb atadilar.

Yaqinda shu tumandagi

Dunyoda bayramlar juda ko'p. Ularning nishonlanish tarzi, an'analari ham rango-rang. 18 noyabr butun dunyoda, shu jumladan yurtimizda ham xalqaro yoshlar kuni sifatida keng nishonlanadi. Yoshlarga alohida e'tibor bilan qaraladigan vatanimizda, ayniqa, bu bayram o'ziga xos tarzda tantana qilinadi. Ana shu bayram munosabati bilan

## "KAMOLOT" CHILARDA HAR KUNI TADBIR-

deydi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Toshkent shahar bo'limi kengashi homiyligidagi shahar Bolalar tashkiloti raisi Gulchehra OLIMJONOVA:

3 0 0 - muktabda «Bizlar terrorizmga qarshimiz» mavzusida tadbir o'tkazildi. Bolalar tashkiloti tashabbusi bilan o'tkazilgan ushbu tadbirga o'qituvchilar, mahalla faollari, nuroni otaxon va onaxonlar taklif etildi. Ularning tinchlik, osoyishtalik haqidagi suhbatlari va terrorizmning yomon oqibatlari o'quvchilar katta taassurot goldirdi.

Umuman Sirg'ali tumanida bu kabi tadbirlar tez-tez o'tkaziladi. Bunga sabab



harakatchan bo'lsak.

Bundan tashqari barcha tuman maktablarida Prezident asarlari bo'yicha ko'rlik tanlov o'tkazildi. G'oliblar aniqlandi. Ular shahar tanloviya yo'llanma oldilar. Tanlov dekabrdi o'tkazilishi mo'ljallanayapti.

Bu kabi tadbirlar deyarli har kuni

tuman bolalar tashkiloti raisi Gulnur Kazaxovavanning tirishqoq va izlanuvchanligida bo'lsa kerak. Qani endi barchamiz Gulnurdekk

o'tkazilayapti. Tadbirlarimizga kattalar ham befarq emas.

Shahar qo'shimcha ta'lif markazi direktori Galina opa Xamzayeva ko'plab tadbirlarimizga bosh-qosh bo'layaptilar. Shunday tadbirlardan biri nemis olimlari bilan birligida «Ekologiya va yoshlar: muammo va uning yechimlari» mavzusida ikki kunlik seminar o'tkazildi. Unda muktab o'quvchilar, olimlar, tabiatni muhofaza qilish bosh boshqarmasi xodimlari ishtirot etdi. Seminar davomida ayniqsa o'quvchilar tabiatni ko'z qorachig'idek asrabavaylash kerakligini yana bir bor his qildilar. Buni men ularning ketma-ket bergen savollaridan angladim.

Ayni kunlarda maktablarda ham gazeta va jurnallarga obuna davom etayapti. Toshkent shahrida 317 ta muktab bor. Bilishimcha, shahardagi muktab o'quvchilar viloyatga qaraganda «Tong yulduzi» gazetasini kamroq o'qishadi. Buni men gazetadagi «Xatlar tegirmoni»da va obuna ko'rsatgichida kuzatdim.

2002 yilda esa bu holni takrorlamaslikka harakat qilamiz. Shahar o'quvchilarini ham gazetaga ko'proq jalb qilish niyatidamiz.

F. ODILOVA yozib  
oldi.

## 18 NOYABR - XALQARO YOSHLAR KUNI

Ixtirochi yoshlarimiz ham talaygina. Ular erishayotgan yutuqlarni ko'rsam, ko'nglimda buyuk kelajagimizga ishonch, uyg'onadi.

Dildora RUSTAMOVA, O'zbekiston televideniyasi suxandoni:

- Men Yaqinda Janubiy Koreyada safarda bo'ldim. Zukko va tinib-tinchimas

birida o'qiymen. Litseyimizdag shart-sharoitni ko'rib xorijiklar ham qoyil qolmoqda. Shunday bo'lgandan keyin men va men kabi tengdoshlarim xalqaro tanlovlarda qatnashib, g'olib chiqadi!

SHAHNOZA, karate bo'yicha jahon kubogi sohibasi:

- Istiqlol sabab ko'pgina xorijiy sport turlari ommalashib, yoshlarimiz e'tiborini qozonmoqda. Karate ham ana shunday sport turiga kiradi. O'zbek yoshlari endilikda bu borada ham mahoratlarini ko'rsatmoqda. Jahon kubogi sohibasi bo'lib, madhiyamiz yangrab, bayrog'imiz ko'tarilganda, benihoya to'qinlanib ketdim. O'sha paytda men ko'rganiningizda edi... Haligacha ishongim kelmaydi. Karate yuqori darajada rivojlangan davlatlar yoshlari ustidan zafar qozonish oson ish emas. Bunday baxtga tuyassar etgani uchun istiqlodan minnatdorman.

Rustam HOSHIMOV, havaskor bokschi:

- Kelajakda kuchli bokschi bo'lib, yurtimiz sha'nini dunyoga yoymoqchiman. Jahon championlari Rufat Risqiyev, Muhammadqodir Abdullayev, Ruslan Chagayevlar kabi mashhur bo'lishni xohlayman. Shu yo'lda timay shug'ullanaman. Alpomish avlodlari yangi asrda, yangi ming yillikda ham ajdodlari qoldirgan boy an'analarni rivojlantirib, g'oliblikni qo'ldan bermaydi.

Ha, o'zbek yoshlari o'z xalqi va vatanini nomini olam aro mashhur etishga chog'lanmoqda. Ular erishayotgan yutuqlar yorug' kelajakdan darak berib turibdi. Ana shu yosh qahramonlar timsolida davlatimiz buyuklikka intilmoqda.

Shuhrat ORIF.



koreys yoshlari o'zlarining tashabbuskorligi bilan ajralib turadi. U yeragi ta'lif jarayoni bilan tanishib bildimki, biznikidan u qadar farq qilmas ekan. Yurtimizda yoshlar uchun ko'plab qulayliklar yaratilgan. Muhtasham litsey-kollejlar shahar-qishloqlarimiz husniga husn qo'shamoqda. Demak hamma narsa imkonimizdan foydalanishga bog'liq. O'ylaymizki, yoshlarimiz o'zining qobiliyati, iste'dodi bilan hech kimdan qolishmaydi.

Diyor QO'ZIBOYEV, Xalqaro «Shankar» mukofoti sovindori:

- «Bugungi yoshlar o'n yil odingi yoshlarga sira o'xshamaydi». Bobom shu gapni qayta-qayta takrorlashni kanda qilmaydi. Bu rostmi-noto'g'rimi bilmadim bugungi yoshlar g'ayratimkoniyatli, tadbirkor va bilimdon ekaniga shubha qilmayman. Masalan, men poytaxtdagi nufuzli litseylardan

## IQTIDORLI YOSHLAR - VATAN TAYANCHI

yurtimiz nomini dunyoga taratib, turli sohalarda yutuqlarga erishayotgan, xalqimizning faxriiftixori bo'lgan ayrim yoshlar bilan suhbatlashdik.

Doston UBAYDULLAYEV, «Nihol» mukofoti sovindori:

- Yoshlar hamma zamonlarda ham faol kuch bo'lib kelgan. Aytish mumkinki, hamma katta tashabbuslar va harakatlar asoschisi - yoshlar. Shu ma'noda yurtimizda ham yoshlarga alohida g'amxo'rlik qilinayotgan quvonarli. Yoshlarimiz xorij o'quv yurtlarida tahsil olib, o'z iqtidorlarini namoyish etmoqdalar. O'zim misolimda aytadigan bo'lsam, mening ijodim ilhomchisi ham istiqlol. Bu yil «Nihol» mukofoti bilan taqdirlandim. Men bu yutug'imi vatanimizdag yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar mevasi deb bilaman.

Dilfuza MATBOBOYEVA, Yaponiyada o'tkazilgan xalqaro tasviriy san'at ko'rgazmasi g'olib:

- Yurtboshimiz ko'p chiqishlarida o'zbek yoshlarining jahondagi boshqa millat yoshlaridan kam emasligini bot-bot

Inson hayotida shunday muhim davrlar bo'ladiki, bir umrga unutilmas va faxrli bo'lib qoladi. Bu o'quvchilik davridir. Maktab yosh avlod dunyo qarashini shakllantirib mustaqil hayotga qadam qo'yishida ilm va tarbiya maskani bo'lib xizmat qiladi. Ilk bor maktabga borgan kuni, birinchi muallimi bir umrga yodida muhrlanadi. Respublikamizda 1997 yil

## MAKTABIM

avgust oyida qabul qilingan «Ta'limgo'srisida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash» milliy dasturi ta'limgo'ssi isloq qildi. Maktablarda ta'limgo'ssi tarbiya berish zamon talablari darajasida yo'lga qo'yildi.

Shunday ilm dargohlaridan biri poytaxtimizning Sirg'ali tumanida joylashgan 104 - maktabdir. Ushbu maktabda men yetakchi bo'lib ishlab kelayapman. Maktabimiz o'zbek adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan Juhon



O'quvchchi odobsiz bolani ham mehri bilan yaxshilar qatoriga qo'sha oladi.

otin Uvaysiy nomi bilan ataladi. Unda yuzga yaqin talabchan va bilimdon murabbiylar o'quvchilarga saboq beradilar. Ularning mashaqqatli mehnatlari javobsiz qolmaydi. Masalan, Sultonoy Rejemetova, Said Eshmuamedova, Galina Husanova, Larisa Matkarimova, Sharofat Saidxojayeva, Dilfuza

Ma'rifxonova esa «Oliy toifali o'qituvchi» unvonlari bilan taqdirlanganlar. Bundan tashqari o'zining bolalarga ta'limgo'ssi tarbiya berish usullari bilan maktab o'qituvchilariga o'mak bo'lib kelayotgan faxriy o'qituvchilarimizdan Tojixon Mashari pova, Dilorom Yodgorova va Haima Alimova-

kundan - kunga ortib bormoqda. Bu yil maktabimizning 20 yillik yubiley to'yini nishonlaymiz. Mana shu 20 yillik faoliyatida maktab qanchadan-qancha jamiyatimizga foydasi

## FAXRIM

tegadi-gan shaxslarni



rag'batlantirilib turiladi. Ushbu ahil jamoaga ishi bilan so'zi bir opa Adiba Domlatjonova rahbarlik qilib kelayaptilar. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida bir qator to'garaklar faoliyat ko'rsatib kelmoqda: «So'zanachilar», «Mohir qo'llar», «Dutorchilar», «Futbol», «Sheyping», «Sambo» to'garaklari shular jumlasidandir.

«Xor», «Raqs» to'garaklariga ham o'quvchilar faol qatnashadilar. Shuning uchun ham har yili tuman miqyosida o'tkaziladigan

tarbiyalab voyaga yetkazdi. Mana shunday maskanda ta'limgo'ssi olayotgan har bir o'g'il-qiz o'z maktabi, ustozlari bilan faxrlanadi.

Men maktabim jamoasining keyingi ish faoliyatida, sog'lom fikrli, barkamol avlodni tarbiyalab chiqarishida ulkan zafarlar tilayman.

Nargiza FOZILOVA,  
Toshkent shahar, Sirg'ali  
tumanidagi  
104 - maktab yetakchisi.

## TO'POLONCHI LAR UCHUN DARS

- Bizning tilimiz bilan aytganda «to'polonchi» o'g'il bolalar ko'pincha maktab orqasiga o'tib tamaki tutatishadi, - deydi 8-»G» sinf o'quvchisi Nargiza HAKIMOVA.

Ammo men bu holni o'z m a k t a b i m d a kuzatmaganman. Negaki ustozlarimiz ko'p marotaba ta'kidlashadi, «chechish bolalar uchun o'ta xavfli» deb.

Psixologlarning aytishlaricha, yigirma yoshgacha chekmagan bola undan keyin ham tamaki

Ota-oni vujud me'mori bo'lsa, Muallim qalb me'moridir.

haqida o'yamas ekan. Shuning uchun ham maktabimizda bu mavzusida tez-tez suhbatlar o'tkaziladi.

Yaqinda «Chekish va alkogolizmni oldini olish» mavzusida katta bir tadbir bo'ldi. Unga tuman hokimiyatidan vakillar, shifokorlar, mahalla oqsoqollari, voyaga yetmaganlar bilan ishslash bo'limining xodimlari taklif qilindi. Mehmonlarning har bir gaplari biz o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Nazarimda tamaki haqida o'yab yurgan o'sha «to'polonchi» maktabdoshlarimiz ham o'zlariga kerakli xulosani chiqardilar.

## BIRINCHILIKNI QOLDA BERMAYMIZ

- Maktabimiz jamoasi bir-biri bilan ahil, - deydi Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rribosari Sultanoy REJEMETOVA. - Ana shu ahil jamoa yaqinda maktabimiz yaqinidagi tashlandiq yerni obod qildi. Shinamgina bog' barpo etib, atrofdagilar e'tiboriga tushishdi. Bu kabi yaxshi ishlarga albatta maktab direktori Adiba opaning hissasi katta bo'ldi.

O'quvchilar ahil bo'lgandan keyin albatta o'quvchilar ham do'st, o'rtoq bo'ladi-da. Ular bilan tanlovlardan, tadbirlardan, suhbatlar o'tkazib sira zerikmaymiz. Doimo birinchi safda borishadi.

Yaqinda sinflararo qog'oz parchalari va metal parchalarini yig'ish bo'yicha bellashuv o'tkazdik. Bu bellashuvda ham tumanda birinchilikni qo'lga kiritdik. Obuna masalasida ham bo'sh kelmayapmiz. Har bir sinf hech bo'limganda «Tong yulduzi» gazetasiga bittadan obuna bo'layapti. Ilojini topgan sinflarda uch, to'rttadan obuna bo'lishlariga harakat qilayapmiz.

*Maktab yetakchisi bilan suhbatlashganimda o'quvchilar bilan birgalikda ko'plab tadbirlar, bellashuvlar o'tkazilib turilishini aytdilar. Yaqinda «Kamolot» yoshlar ishtimoiy harakati homiyligida maktabda «Kamalak» bolalar tashkiloti tuzilibdi. Bu tashkilotga o'quvchilar qiziqish bilan qarashayotgan ekan. «Kamalak»chilar tashabbusi bilan «Biz terrorizmga qarshimiz» mavzusida suhbatlar ham o'tkazilibdi. Unda bolalar faol ishtirok etib, o'zlarining qiziqtirgan savollariga javob olishibdi.*

*Maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtalaridan unumli foydalananayotgan maktab jamoasining keyingi ishlari omad tilab qolamiz.*



Sahifani Feruza ODIROVA tayyorladi.

Bobojon, bolalik  
yillaringizni qanday  
xotirlaysiz? Xalq og'zaki  
ijodiga qiziqishingizda  
kimning ta'siri kuchli  
bo'lgan?

- Bolaligimda kitob titkilash, o'qish eng sevimli mashg'ulotim bo'lgan. Kitobda tasvirlangan qahramonlar orzulari bilan yashaganman. 10 yoshga to'imasdanoq ertak, dostonlardan ko'pini o'qib yod olganman. «Go'ro'g'li», «Alpomish», «Avazxon», «Qunduz bilan Yulduz», «Kuntug'mish» dostonlarini qayta-qayta o'qiganim uchun yodlab olganman.

10-12 yoshimda kuz va qishning uzun kunlari meni choyxonaga chaqirishardi. Choyxo'rlikka emas, yosh bolaman-ku! O'sha vaqtarda erkaklar choyxonaga yig'ilib, kurak chuvashar edi. Men esa ularga dostonlar o'qib berardim. Choyxonadagilar meni «Ana, Alpomish keldi», «Ana, Avazxon keldi» deb xursand bo'lib kutib olishardi. Men to'xtamay dostonlar o'qirdim.

Yoshligimda o'qigan bu dostonlarim keyinchalik o'qishimda, nomzodlik ishlarim himoyasida ham qo'l keldi.

Dostonlardan tashqari, xalq og'zaki ijodining topishmoqlar, qo'shiq, latifa, maqol, rivoyat, masallar kabi turlari bilan ham qiziqsanman. Xalq orasida kezib ko'p kitoblar yaratdim: «Bolalar o'yinlari», «Xalq an'anaları», «O'zbek qadriyatları», «Sarchashmadan tomchilar», «Ijad durdonalari», «Non qadri», «Kitob qadri», «Allomalar ibrati», «Laylak keldi - yoz keldi». Bu kitoblarim qishloqma-qishloq, ovulma-ovul kezib, xalqdan bittalab yozib olgan ertak, topishmoq, tez aytishlar hisobiga



Нұқталар ўрнида берилған сүзларнинг бош ҳарфини жойига күйиб, керакли сүзни топинг:

Find these words:

1. Something is not easy is ... .
2. Something is not old is ... .
3. Kangaroos and koalas live there ... .
4. It was your birthday today. People would say '... birthday' to you.

Make a word from the first letters of these words.  
The word: It gives you light.

The wonderful worldwide names Quiz

Күйидаги инглизча сүзларнинг бош ҳарфидан яширин сүзни топинг:

Name an international organization beginning with U

Name a country in Africa beginning with Z

Name a sort of food beginning with B

The word: a part of body.

Find these words:

- 1 When you ask a question you usually get an ... .

# OTANG - QUMOSH, ONANG - OY

## BIZNING BOBOLAR

**Aziz bolajonlar! Siz ertak, afsona, latifalarini mazza qilib o'qisiz, nutqingizda xalq maqollarini, iboralarini qo'llaysiz, tez aytish, topishmoqlar orqali zukko, topqirrigingizni namoyon etasiz. Adabiyot darslaridan yana shuni bilasizki, ertak, topishmoq, maqollar bir kishi tomonidan yozilmaydi, balki folklorshunos olimlar tomonidan xalq orasida yurib birma-bir yozib olinadi. Gazetamizda «Bizning bobolar» sahifasini tashkil etdik. Maqsadimiz - biz uchun jon kuydirayotgan olim, shoir, yozuvchi, chirolyi imoratlar qurib berayotgan muhandis, qolaversa, barcha kasbdagi bobolarimiz hayoti, o'gitlari bilan sizni tanishtirib borish. Sahifamizning ilk mehmoni - filologiya fanlari doktori, professor, taniqli fan arbobi Malik MURODOV bo'ladilar.**



yaratildi. Ba'zan qog'oz qolmagan yoki shoshib qolgan paytlarimda shim pochalariga ham yozib olardim. Otam Murodilla Ziyodulla o'g'li, onam Bibisora Xudoybergan qizi, akam Vahobjon Murodov, opam To'xtarxon To'ychiboyevalar usta ertakchilar bo'lgan. Xalq og'zaki ijodiga qiziqishimda ularning, ilm sari intilishimda esa ustozlarim Hodi Zaripov, Mansur Abzalov, Muzayyana Alaviyalarning xizmatlari katta bo'lgan.

Hozirgi o'quvchilar avvalgidek emasmi, deb o'ylab qolaman. Nazarimda kam o'qishayotgandek. Sababi nimada deb o'ylaysiz? Bozormi? To'qlikka sho'xlikmi?

- Islom qadriyatari, xususan Qur'oni karim, hadisi sharifda, ulug' allomalar qayta-qayta uqtirishlari va ta'llim berishlaricha, ilm har qanday inson uchun «yo'lchi yulduz», «baxtiyor hayot kechirish uchun omil bo'luchchi» birdan-bir vositadir. Ilm, o'qish-o'rganish har qanday og'ir, mushkul muaamolarni yechuvchi kalit,

har qanday ma q s a d g a eltuvchi kuchli omildir. Xalq ilmli kishi maqsadiga tez yetishini, baxtsa o d a t g a e l t i s h i n i , komillikka erishishini qayta-qayta

ta'kidlaydi. «Olim bo'lsang - olam seniki» iborasini bir sharhlab ko'raylik. O'qib, ilm o'rganib komillikka erishgan inson butun olamni egallaydi.

Hozirgi o'quvchilarning ko'pchiligi ilmga, o'qishga qiziqadi.

To'g'ri, ba'zan yoshlar kam o'qiyapti degan gaplarni ham eshitib qolaman. Ammo unchalik to'g'ri emas. O'quvchilarimiz orasidan xorijiy mamlakatlarga borib, 4 yillik o'quv dasturlarini 2 yilda bitirib kelayotgan yoshlar

chiqayotganidan faxrlanaman.

Unda shunday ajoyib bolajonlar uchun xalq og'zaki ijodidan namunalar aytilib bersangiz.

«Laylak keldi - yoz keldi» kitobimda ular uchun boshqotirma, o'zin, tez aytishlar bergenman. Bu kitob boshqa tillarga ham tarjima qilingan.

Man, ushbu tez aytishlarni mashq qilib ko'rishsin-chi!

Oyga, poyga, poyga, oyga. Bir tup tut tagida, Bir tup turp turibdi.

Oq choynakka oq qopqoq, Ko'k choynakka ko'k qopqoq.

Nabiralarim «Otang - quyosh, onang - oy» maqolini hech qachon unutmasliklarini istardim. Quyoshsiz, oysiz yashay olmaganimizdek, otanasi ham hayotimiz qorong'u, mehrsiz, zerikarli bo'lib qoladi. Yana unutmaslik kerakki, «Bola aziz - odobi undan aziz».

Qayerlarda folklor ekspeditsiyasida bo'lgansiz?

- Men an'anaviy va zamonaviy

dostonlar, sehrli, hayotiy maishiy, hayvonlar haqidagi ertaklar, bolalar folklori namunalarini qidirib dunyo kezdim. Turli millat va mazhab kishilari orasida bo'ldim.

Turkmaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, tog'li Oltoy, Moldaviya, Latviya, Litva, Bissarabiya, Polsha, Ruminiya, Mo'g'uliston, Ozarbayjon, Gruziya, Dog'iston, Armaniston, Abxaziya, Turkiya, Hindiston, Xitoy, Qoshg'ar va ko'pgina joylarda bo'lib, folkloriga oid materiallar to'plaganman.

- Bolalarga bir ertak aytib bersangiz.

Mashohlarning aytishlaricha, bir podsho 3 o'g'liga o'zingizning nomingizni qoldirib, rabot quring, deb boyligini beribdi. Katta o'g'li nomim qolsin deb o'ziga hashamatli maqbara soldiribdi, o'rtancha o'g'li bog'rog' qilibdi, kenjas do'st orttiribdi. Buni eshitgan ota: «Vaqti soati kelib maqbara nurab bitadi, bog'rog' quriydi, ammo mustahkam do'stlik hamma narsaga bardosh beradi, kenjam to'g'ri yo'l tutibdi» deb vorislikni unga topshirgan ekan.

*Bobojon, s h u k u n l a r d a q a n d a y o r z u l a r b i l a n y a s h a - y a p s i z ?*

Yoshligimda o'qishga

ulgurmagan kitoblarimni mutolaa qilyapman.

«Alpomish» turkumidagi dostonlar, afgona va rivoyatlarni turk tilida nashr etishga tayyorlayapman. O'zbek xalq og'zaki ijodidan namunalar bilan xorijiy davlat bolalarini ham tanishtirish uchun kitoblar tayyorlayapman. Jondan aziz mustaqillik va istiqlol uchun jon kuydiriyapman.

Asosiysi, sizning sevimli «Tong yulduzi» gazetangizning muxlisiman. Shu gazetada muntazam qatnashib turishni istayman. Gazetangiz uchun yangi kitobimni sovg'a etaman va undan namunalar bilan tanishtib borishingizni, sevimli gazetangizga tezroq va ko'proq obuna bo'lishingizni, o'quvchilar kam o'qiydi degan gap chipakka chiqishini juda-juda xohlayman.

Zero, siz buyuk bobolar nabiralarisiz, ishimiz davomchilarisiz. Sizlardan umidimiz katta, siz esa bu ishonchni oqlaysizlar.

Suhbatdosh: Baxtiyor BAHODIR o'g'li, TDMI IMF fakultetining 1-kurs talabasi,



Name a high mountain beginning with E

Name a part of the body beginning with K

Name an American state beginning with I

Name a beautiful, white bird beginning with S

Name a profession beginning with T

Name an Ocean beginning with A

Name a planet beginning with N

4. When the cats away

5. East or West

6. Wear the old coat

7. You may lead a horse to water

a) sweeps well.

b) home is best.

c) is as the sun in winter.

d) is worth two in the bush.

e) and buy a new book.

f) the mice will play.

g) but you can not make it drink.

Klara INFOFOMOVA.

## ИНГЛИЗ ТИ-ЛИНИ ЎРГА-НАМИЗ WE LEARN INGLISH



**boshlaylik?**

Bugungi mehmonimiz Kamola yosh bo'lishiga qaramay, o'z muxlis va muxlisalariga ega bo'lgan yosh aktrisa hamda raqqosa. U suratga tushgan filmlar juda ham ko'p. Bularidan «Ayollar sultanati» filmida Baxtigul obrazini, «Sevgi» filmida Salima obrazini eslashimiz mumkin. Ayniqsa, u tushgan kliplar bizga juda tanish:

- Ha, yaqinda Hindistonda ijodiy safarda bo'ldik. Hindiston bilan hamkorlikda «O, muhabbat» filmi suratga olindi. Asosiy rollarni hindistonliklar ijob etishdi. Men ham bir rol ijob etdim. Hozircha bu sir. Yana bir gap. Hindistonda shunday jarayonni kuzatdimki, qashshoq xalq bo'lsa-da, san'at juda qadrlanar ekan. Kino uchun hamma narsa bor, hamma shart-sharoit yaratilgan. Alovida uy deysizmi, vokzal, aeroport. Men shu narsaga amin bo'ldimki, Hindiston kinochilar shahri.

Shuhrat Qayumovning «Netay» qo'shig'i, Diyorbek Mahkamovning «Onajon» qo'shig'i, O'yopo p u k Eshonxo'jayevanining «Akajon» qo'shig'i. Ha, ana endi yaxshiroq tanib oldingizmi?

- Kamola opa, yaqinda siz Hindistonda safarda bo'lib qaytibsiz. Keling, suhbatni Hindiston taassurot lari dan

Mana yaqinda siz suratga tushgan «Ostona» filmi oynayi jahon orqali namoyish etildi. Bu film haqida nimalar deya olasiz?

- Bu film Termizda suratga olingen va aynan hozirgi kunga juda mos deb o'layman. Film olinish jarayonida chegarachilarimizga qanchalik qiyinligini his qildim.

- Kamola opa, siz ham yosh aktrisa, ham raqqosasiz. Qiyin emasni?

- Qiyin, juda qiyin. Raqsmi, oddiy qo'l harakatida, aktrisa

uchun bir obrazni yaratish nima degan gap, deb o'ylashadi. Yo'q, ekran orqali ko'rish oson albatta. Bilaman, men tanlagan rol og'ir va mashaqqatli. Fursatdan foydalanib bu sohani tanlashimga qarshilik ko'rsatmay rozi bo'lganlari uchun otanonanga rahmat aytaman.

- Siz xalq nazaridagi insonsiz, odamlar ko'chakuyda sizga boshqacha qarashadi. Siz qanday ahvolga tushasiz?

- Qaysi aktrisalarga havas qilasiz?

Gulchehra Jamilova, Gulchehra Sa'dullayeva, ayniqsa, Lola Eltoyeva, chet elliklardan Julya Roberts, Demi Mur.

- O'z oldingizga nimalarni maqsad qilib qo'ygansiz?

- Men

## HAM AKTRISA HAM RAQQOSA

o'zbek ayollaridagi sabr-toqatni qadrlayman va buni o'z obrazlarimda ifoda etishga harakat qilaman.

Kelajakda o'zbek kinosini dunyoga olib chiqishda menin ham xizmatim bo'lsa deyman.

- Kelajakda qanday rollarni ijro etishni xohlardingiz?

- Bir so'z bilan «Zaynab» obrazini deyishim mumkin. Chunki men bir umr shu obrazni yaratishni orzu qilaman.

- El nazaridan qolish sizning-cha...

- O, bu dahshat! Men o'zimni hali yulduz deb hisoblamayman. Hozircha kichik yulduzchaman. Bilaman, albatta mashhur kishilar hayotida bu narsa bo'ldi. Bilasizmi, el nazaridan qolishdan albatta qo'rqaman.

- Biz sizni hech qachon el



nazaridagi sabr-toqatni qadrlayman va buni o'z obrazlarimda ifoda etishga harakat qilaman.

Kelajakda o'zbek kinosini dunyoga olib chiqishda menin ham xizmatim bo'lsa deyman.

- Kelajakda qanday rollarni ijro etishni xohlardingiz?

- Bir so'z bilan «Zaynab» obrazini deyishim mumkin. Chunki men bir umr shu obrazni yaratishni orzu qilaman.

- El nazaridan qolish sizning-cha...

- O, bu dahshat! Men o'zimni hali yulduz deb hisoblamayman. Hozircha kichik yulduzchaman. Bilaman, albatta mashhur kishilar hayotida bu narsa bo'ldi. Bilasizmi, el nazaridan qolishdan albatta qo'rqaman.

- Biz sizni hech qachon el

## TICIM - FTIXORM MENING

Vatanga sadoqat, elga muhabbat kabi ma'naviy kamolotning o'zagini tashkil etuvchi tushunchalarni ona tilidan ayro holda tasavvur qilishimiz qiyin. Mustaqil davlatimizning yanada rivojlanishi, ma'naviy yuksalishida tilning ahamiyati juda kattadir. Zero, ma'naviyati yuksak, odob -ahloqli, go'zal madaniyatli insonlar shu yurtning faxri hisoblanadi.

Ammo, millati o'zbek bo'la turib, ona tilida ravon so'zlay olmaydiganlarni kim deb atash mumkin?.. Avvallari rasmiy hujjatlarning barchasi rus tilida olib borilardi. Bugungi kunga kelib esa o'z ona tilimizga ega bo'ldik. Shunday bo'lsa-da, nazarmida mana shu bebafo ne'matning qadriga yetmayayotgandekmiz. Bu kunlarni ota-bobolarimiz ozmuncha kutishganmi?!

Ko'chalarda, transport vositalarida yurganingizda ona tilimizga ruscha so'zlarni qo'shib gapirayotgan ayrim tengdoshlarimizni ko'rib, ta'bimiz xira tortadi. Balki ular uchun bu hol nutq madaniyati hisoblanar. Ammo o'z ona tilini buzib, ravon so'zlamaslik madaniyatsizlik ekanligini nahot bilmasalar?..

Nutq madaniyati ko'nikmasini egallash avvalo oiladan boshlanadi. Xonadonda ota-onalar qanday muomalada bo'lishsa, farzand ham shuni o'zlashtirib olishi va bu holat uning ongiga singib borishi aniq. Kattalar nutqidagi har qanday noqislik yoki tugallik sekin - asta bolaning nutqiy ko'nikmalarida barqarorlashib boradi. Bolalarning murg'ak qalbida ona Vatanga, tiliga, diniga nisbatan mehr uyg'otish nafaqat kattalarning, balki har birimizning sharaflı burchimiz, deb o'layman.

Shahlo MUTALOVA.

a'lo  
baholarga  
o'qir ekansiz-a?

- Menimcha, inson astoydil

intilsa, hamma narsaga ulgursa bo'ladi.

Hayotdagisi shioringiz qanday?

- Yagona shiorim: «Intilganga tole' yor!» Bu naqlga amal qilib, kam bo'layotganim yo'q.

- Bo'sh vaqtlariningizda nimalar bilan shug'ullanasisiz?

- Ko'proq badiiy kitoblar o'qishga harakat qilaman. Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar», Abdulla Qahhorning «O'tmishdan ertaklar», Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar», jahon adabiyoti durdonalaridan Rashod Nuri Guntekining «Choliqushi» asarlarini qayta-qayta o'qiyan. Ayni ta'til kunlarida ham qo'limdan kitob tushmayapti. Ularni o'qisam fikrlarim teranlashib, bilimlarim boyib borayotganini his qilaman.

- Kelgusidagi orzularingiz qanday?

- Maktabni a'lo baholarga tamomlab, olyi o'quv yurtiga kirishni, sevgan kasbim egasi bo'lib, O'zbekistonim dovrug'ini jahonga yoyishni niyat qilaman.

- Niyatlariningiz yo'ldoshingiz bo'lsin, Umida! Muxlisa MUHIDDINOVA suhbatlashdi.

# ANIS OO'STAR

## ( E r t a k )

o'tkazmoqchi bo'lishibdi. Xo'roz daraxtning shoxiga chiqib joylashib olibdi va tezda uyquga ketibdi. Kuchuk bo'lsa, daraxt tagida uqlab qolibdi.

Bor ekanda, yo'q ekan, kuchuk bilan xo'roz ahil do'st ekan. Ular kunlardan bir kun maslahat qilib uzoq safarga chiqibdilar. Ular kuni bilan yurib juda charchabdilar. Kechga yaqin ular katta daraxt tagiga kelib uqlashibdi-da, shu yerda tunni

Ertasiga ertalab tong paytida xo'roz to'satdan «Qu-qu-qu! Qu-qu-qu!», - deb qichqira boshlabdi.

O'rmonda daydib yurgan och tulki xo'rozing qichqirgan

ovozini eshitib quloqlari ding

bo'libdi:

- O'zim ham juda ochiqib

yurgan edim, qanday yaxshi

bo'ldi-ya, deb tulki tezda ovoz kelgan tomonga yo'l olibdi. U xo'roz yotgan daraxt tagiga kelib:

- Oh, ovozingdan, xo'rozjon, qanday sho'x ovoz!, - deb uni alday boshlabdi. Ey, ajoyib xo'roz, ovozing juda ham go'zal ekan. Tezroq yerga tush. Ovozingni yaqinroqdan eshitishni xohlayman...

- Oldin tagimdag'i qorovulni

uyg'otgin. Keyin men pastga tushaman, «Qu-qu-qu!», - debdi xo'roz tulki.

Tulki bo'lsa, mug'ombirlik bilan u yoq - bu yoqqa alanglab:

- Qorovul! Hoy qorovul! - deb uvullay boshlabdi.

Shu payt daraxt tagida yotgan ziyrak kuchuk sapchib o'rnidan turibdi:

- Vovv-ov-vov-vov, - deb o'zini tulki tashlabdi va yovuz tulki bo'g'ib o'ldiribdi. Shunday qilib, kuchuk xo'rozni tulkidan

qutqarib qolibdi, kuchuk bilan xo'roz yana ahil do'st bo'lib yashayotgan emishlar.

*Fransuz tilidan  
Saidg'ani MUSAYEV  
tarjimasi.*



# FRANSUZ-XANDALARI

Ekvatorda bir kishi ikkinchisiga dedi:

- Ey! Siz fil ovlayapsizmi, janob? - Ha, biroq... Bilasizmi, aslida men kapalak oviga chiqqandim, baxta qarshi ko'zoynagimni yo'qotib qo'ydim...

\*\*\*

- Marhamat qilib menga professor Xurdonning «Qanday qilib narx ko'tarilishiga qarshi kurashmoq kerak» kitobini ko'rsatib yuboring!

- Bajonidil. - Bir hafta burun ko'rganimda 10 frank edi-kul!

- Ha, u eski narxi edi-da.

\*\*\*

Politsiya mahkamasiga hovliqib kirib kelgan janob Dyuran dedi:

- Janob politsiyachi, men o'g'rilik qurbaniman.

O'g'rining tashqi ko'rinishini tasvirlab bera olasizmi?

- Ha, albatta. U kulrang kostyum, shlyapa va qora oyoq kiyimda edi.

- Him... Bu juda mavhumku, sizda boshqa ma'lumotlar yo'qmi?

- Ha. Darvoqe, uning cho'ntagida mening qopchig'im bo'lsa kerak!

\*\*\*

Bir kuni Mariusga o'rtog'i dedi:

- Bilasanmi, men shunday kishini taniymanki, u 5 - qavatdan yiqilib tushganiga qaramasdan o'zini juda dadil his qilgandi.

- Seni qara-yu, mening bir tanishim 15 - qavat derazasidan qulab tushdi, u ham o'zini xuddi hech narsa bo'lmagandek tutganiga nima deysan?!

- Bo'lishi mumkin emas.

- Nega mumkin bo'lmisin? Baxtni qaraki, u derazadan.... ichkariga qulab tushgandi...

\*\*\*

Bir turist yo'l chetida turgan dehqonning yoniga kelib

mashinasini to'xtatib dedi:


- Adashmasam, hozirgina mashinaga tosh otgan sizning o'g'lingiz bo'lsa kerak?!

- Tosh sizga tegdimi?

- Yo'q.

- Unday bo'lsa u menin o'g'lim emas, janob...

*Fransuz tilidan  
O'zMU O'zbek  
Filologiyasi fakulteti  
Turkologiya bo'limi  
3-kurs talabasi  
Iskandar  
XUSHVAQTOV tarjima  
qildi.*



# ARALASH TEST

- Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy qachon va qayerda tug'ilgan?  
A) 1894 yil Toshkentda  
B) 973 yil Xorazmda  
C) 992 yil Bolosog'un shahrida  
D) 1827 yil Buxoroda

- Quyida keltirilgan qaysi davlat O'zbekistonga chegaradosh emas?  
A) Turkiya  
B) Qozog'iston

Xotirasiz umr bugunning qadriga yetmay yashamoqdir.  
\*\*\*

Inson boshiga yog'iladigan falokatlarning ildizi hasad va xusumatdir.

\*\*\*

Inson hayoti cheksizlik oldida chang zarrasidek ekan, umrni yomonlik

- Afg'oniston  
D) Tojikiston

- Paxta bundan ming yillar avval, ilk bor qayerda o'stirilgan?

- Xitoya  
B) O'zbekistonda  
C) Peruda  
D) Hindistonda

- Yunus Rajabiy kim bo'lgan?

bilan bulg'ash ne darkor.

\*\*\*

Qayg'u, zerikish, qo'rqish, umidsizlik, hasad, adovat, irodasizlikka bandi bo'lgan odam o'z

- A) Yozuvchi va shoir  
B) Hofiz va bastakor  
C) Faylasuf olim  
D) Tilshunos

- Agar ikki to'g'ri chiziqtik kesishmasa, unda qanday chiziqlar deyiladi?

- Proporsional  
B) Perpendikulyar  
C) Aksiomalar  
D) Parallel chiziqlar

umri ildiziga bolta uradi.

\*\*\*

Chittak Lochin uyasida paydo bo'ldimi, u Lochin emas.

- Qo'shiqqa moslab olinadigan fi'lm qanday nomlanadi?

- Video  
B) Serial  
C) Klip  
D) Telefilm

- O'zi keng, dengizdan chuqur.

Topishmoqning javobini toping?

- Fikr  
B) Okean  
C) O'ra  
D) Tush

- Oshning ta'mi tuz bilan, Odam ta'mi .... bilan.

- Bilim  
B) Kuch  
C) So'z

- Donolar donosi ham yolg'iz yashay olmaydi.

- Hayot uch daqiqaga bo'linadi: Yoshlik

- Mehnat

- Qaysi multfilm qahramonining kuchli va baqvvat bo'lishiga ismaloq yordam bergen?

- Tomga

- Jerriga

- Mikkiga

- Dengizchi Papaya.

- Amir Temur

- nevarasining nomi keltirilgan javobni toping?

- Zahiriddin Muhammad Bobur

- Mirzo Ulug'bek

- Temur Malik

- Abdulatif Mirza

*Feruza OBIDOVA,  
Yangiyo'l tumanidagi 2-o'rta maktabning 9- «G»  
sinf o'quvchisi.*

yashililikka umid bilan, o'rta yosh - kundalik tashvish bilan, qarilik-o'tmishni eslash va shukronalik bilan o'tadi.

\*\*\*

Juda ham achchiq bo'lma, tuflab tashlaydi, Juda ham shirin bo'lma, yutib yuboradi...

*Muxtor BEK.*

# KO'NGILDAN OTGAN LAHZALAR

bilan bulg'ash ne darkor.

\*\*\*

Qayg'u, zerikish, qo'rqish, umidsizlik, hasad, adovat, irodasizlikka bandi bo'lgan odam o'z

umri ildiziga bolta uradi.

\*\*\*

Chittak Lochin uyasida paydo bo'ldimi, u Lochin emas.

\*\*\*

Donolar donosi ham yolg'iz yashay olmaydi.

\*\*\*

Hayot uch daqiqaga bo'linadi: Yoshlik

Aziz bolajonlar, sizdan, qaysi nashrlarga obuna bo'lishni xohlaysiz, deb so'rashsa, aksariyatizingiz, krossvordu boshqotirmalari ko'p bo'lgan gazeta va jurnallarga obuna bo'lishni istayman, deya javob darsdan bo'sh boshqotirmalar x u s h Orangizda yechibgina krossvordlar qilayotgan h a m maqsadda villardan krossvordu qotirib



Oripovni taklif qildik. Foziljon aka krossvordlar tuzishga ishtiyogmand o'g'il-qizlar safining kengayib borayotganidan behad mammun ekanliklarini aytib, bolajonlarning o'z mashqlarida yo'l go'ygan xato va kamchiliklarini tushuntirib berdilar.

- Kamchiliklariningizni ochiq ko'rsatganim uchun xafa bo'Imanglar, - dedilar ular samimiyo ohangda. - Chunki, krossvord tuzishning ham o'ziga yarasha gonun-qoidalari bor. Ularga amal qilinsagina, mukammal krossvord tuzish mumkin bo'ladi. Yana, tuzgan krossvordingiz avvalo o'zingiz uchun qiziqarli bo'lsin...

1 2 - 1 3  
y o s h l i  
chog'imda  
«Gulxan»  
jurnalida  
e'lon gilingan  
yechib, bu sohaga juda  
q o l g a n m a n .  
Chizmachilik fani  
o'qituvchimiz olib  
to'garakning ham eng faol  
edim. O'n yil davomida  
boshqotirmalar tuzib, turli  
yuboraverdim. Lekin ulardan  
ketmadim. Tuzaverdim, tuzaverdim. Sabrning tagini sarig  
oltin, deganlaridek, tinimsiz izlanishlarim o'z samarasini  
berdi...

Krossvord - inglizcha so'z bo'lib, kross - «kesishgan», vord - «so'z» ma'nosini bildiradi. Krossvordlarning tarixi haqida gapiradigan bo'lsam, ularning yaratilganiga hali bir asr ham bo'lgani yo'q. 1913 yilda Janubiy Afrikadagi qamogxonalardan birida ehtiyyotsizligi tufayli hukm qilingan haydovchi Viktor Orville ismli yigit xona devorlariga turli katakchalar chizadi. Ularning ichiga harflar yozib, ilk bor krossvord yaratadi va uni Keytaun shahar gazetasiga yuboradi. Krossvord gazetada chop etiladi va omma tomonidan yaxshi qarshi olinadi. Hozirgi kunda uning turlari juda ham ko'payib ketgan. Keling, yaxshisi bu haqda tengdoshingiz Durbek Sadirov gapirib bera qolsin.

BIZNING TO'GARAK



krossvordni  
giziqib

boradigan  
a'zolaridan  
o'zim  
nashrlarga

birortasi ham chop

etilmadi. Shunda ham tushkunlikka tushib, qo'l siltab

ketmadim. Tuzaverdim, tuzaverdim. Sabrning tagini sarig

oltin, deganlaridek, tinimsiz izlanishlarim o'z samarasini

berdi...

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining  
gazetasi

Muassislar:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

#### BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA

#### TAHRIR HAY'ATI:

Shuhrat AHMEDOV,

Jamoliddin FOZILOV,

Oynisa

MUSURMONOVA,

Komil YUSUPOV,


Mukarrama

MURODOVA,

Sunnatilla QO'ZIYEV,

Ergashvoy SARIQOV.

Noshir  
«Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.



#### BELGILARDAGI JUMBOQ

Chizmaning pastki qismidagi belgilar yuqori qismidagi aylanalar o'mini anglatadi. Shularga muvofiq har bir belgini aylanalardagi harflar bilan almashtirib jumboqni hal eting. Ularni qatorlar bo'yicha o'qish bilan yapon mamlakati menejmenti amal qiluvchi qoidani bilib olasiz.



#### «KITOB» MUAMMONOMASI

Avvalo quyida ta'riflanib raqamlarda ifodalangan so'zlarni topib, ochqichni hal eting.

1. Bolajonlar jurnali - 12, 13, 14, 11, 2.
2. O'zbek bolalar shoiri nomidan qurat - 15, 3, 9, 10, 2, 8.
3. Kitob betlarini tashkil etuvchi qism - 4, 2, 6, 2, 1.
4. Badiiy asar yozuvchisi, ijodkor - 2, 7, 3, 5.

Endi ochqich javoblari asosida shakldagi raqamlarni harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting. Ulardan mumtoz mutafakkir shoir Abdurahmon Jomiy merofiga mansub ikki misra hikmatni bilib olishga muvaffaq bo'lasiz.

Foziljon ORIPOV.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 58.519 nusxada ofset usulida bosildi.

Korxona manzili:

“Buyuk Turon” ko'chasi, 41.

Buyurtma № Г-3092

Gazetani Abduhamid

ABDUG'AFFOROV sahifaladi.

Navbatchi: Muharrama

PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137 Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.  
144-63-08

#### «AQNI CHARXLOVCHI» JUMBOQ

Darhaqiqat, hozirgi paytda krossvordlarning juda ko'p turlari o'yab topilgan. Chaynvord, skanvord, altervord, estoncha krossvord, vengercha krossvord, filvord kabi turlari shular jumlasidandir. Turli xildagi boshqotimalarga duch kelsangiz, uning qanday yechilishini bilolmay biroz o'nga tolishingiz tayin. Ommabop boshqotimalarning yechilish sirlari haqida ma'lumotga ega bo'lsangiz, hech qiyalmay ularning yechimini topishingiz mumkin bo'ladi. Bugun sizlarga «Amerikacha boshqotirma» haqida ma'lumot bermoqchiman.

#### AMERIKACHA BOSHQOTIRMA

Amerikacha boshqotirma - amerikaliklar krossvordi. U oddiy krossvorddan anchayin farq qiladi. Boshqotirma ichiga sonlar joylashtirilmasdan, tepasiga gorizontalgina raqamlar, vertikaliga harflar yoziladi. Agar gorizontalgina yoki vertikaliga javob so'z ikki yoki undan ortiq bo'lsa, savollar nuqta-vergul bilan yoziladi. Javoblar savollarning navbatiga qarab, qora katakda tugab, ikkinchisi keyingi kataklardan yozilib ketaveradi.

#### SAVOLLAR:

ENIGA: A. Misr hukmdori. V. Burchni ado etish. D. Ko'yak qismi. E. Inson uchun eng aziz maskan. F. Taomlar shohi; Qadimiy qavm. G. Saryog' turi; Uy hayoni. H. Belgilangan tartibda ish yuritish.

#### BO'YIGA:

1. Boshqotirma turi. 2. «Graf Monte Kristo» filmidagi qal'a; Hindistonlik qo'shiqchi. 3. «Shashmaqom» tarkibidagi maqom; Nota. 4. Burj nomi. 5. Sirk maydoni. 6. Malika To'maris yenggan eron shohi. 7. Iqr; Adadda ishlatalidi.

